



**XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI  
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING  
QARORI**

---



---

2023 - yil 27 - noyabr

VI-66-126-5-73-K/23

Navbahor tuman hokimligi

**Tumanda ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida tuman ekologiya bo'limi  
tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida**

Navbahor tumani Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i vazifasini bajaruvchi T.Umrzoqovning "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli hamda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021 yil 30 dekabrdagi 46-sonli Farmonlari ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi hisobotini muhokama qilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

**Q A R O R   Q I L A D I:**

1. Navbahor tumani Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i vazifasini bajaruvchi T.Umrzoqovning "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli hamda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021 yil 30 dekabrdagi 46-sonli Farmonlari ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o'rinnbosarlari va tegishliligi bo'yicha korxona tashkilot va muassasa rahbarlariga:

Tumanda ekologik barqarorlik va ko‘kalamzorlashtirish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

Tumanda tabiiy fauna va florani saqlash va kelajak avlodga o‘z xolicha yetkazish choralarini ko‘rish;

Tumanda mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiatni muhofaza qilishni asosiy masala deb belgilash choralarini ko‘rilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari (J.Sobirov) va xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**A.Ўроқов**